

TARIXGA OID TERMINLARDA POLISEMIYA HODISASI

Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21247169>

Annotatsiya: Maqolada tarix sohasidagi terminlarda ko'p ma'nolilik hamda izohli lug'atlarda ularning ifodalanishi yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: polisemiya, polisemantik leksema, semema, zakot, arbob, forum, zakot leksemalari.

ПОЛИСЕМИЯ В ИСТОРИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация: В данной статье анализируется явление многозначности в исторической терминологии, рассматриваются семантические особенности исторических терминов и принципы их отражения в толковых словарях. Кроме того, представлены научные суждения о семантическом развитии и особенностях употребления отдельных исторических терминов.

Ключевые слова: историческая терминология, полисемия, полисемантическая лексема, семема, толковый словарь, термин, закят, арбоб, форум.

THE PHENOMENON OF POLYSEMY IN HISTORICAL TERMINOLOGY

Abstract: This article examines the phenomenon of polysemy in historical terminology, analyzes the semantic characteristics of historical terms, and discusses the principles of their representation in explanatory dictionaries. Furthermore, it presents scholarly observations on the semantic development and usage characteristics of selected historical terms.

Keywords: historical terminology, polysemy, polysemous lexeme, sememe, explanatory dictionary, term, zakat, arbob, forum,

Leksemaning bittadan ortiq ma'no anglatish hodisasiga ko'p ma'nolilik yoki polisemiya deyiladi. Bittadan ortiq ma'no anglatadigan leksema esa ko'p ma'noli,

polisemiya, polisemantik leksema sanaladi. Polisemiya universal asosiy semantik hodisalardan biridir. Tildagi tejamkorlik qonuni va umumiylik prinsipi polisemiyaning vujudga keltiruvchi asosiy sabablardan biri ko'rsatiladi. [Hakimova M., 2016, 65]. Ko'p ma'noli terminlar bo'lish kerakmi yoki yo'q degan masalada bugungi kunda ikki xil qarama-qarshi fikr ilgari suriladi. Ko'pchilik terminshunoslar "bitta tushunchani bitta belgi bilan ifodalash" tarafdori bo'lib, terminning bir ma'noli bo'lishini yoqlaydilar. Terminshunoslar terminologiyada ko'p ma'nolilik hodisasi bo'lmasligi kerak, deb hisoblaydilar. Negaki, agar bitta leksik shakl bir necha maxsus tushunchalarni atash uchun ishlatilsa, ilmiy va texnik tushunchalarga aniq chegaralanganlik va qat'iy belgilanganlik xosligi uchun muvofiq terminlarning ma'nolari ham aniq chegaralanish va ajratilishga muhtoj bo'ladi. [Grinyev.S.V., 1993, 96]. Ayrim olimlar esa, umumadabiy til birligi bo'lgan so'zlar kabi terminga ham ko'p ma'nolilik hodisasi xos bo'lishi mumkinligini e'tirof etadilar (O.S.Axmanova, V.P.Danilenko, V.M.Leychik).

Aytib o'tish joizki, nafaqat terminlar, balki umumiste'molda qo'llaniladigan barcha so'zlar ko'p hollarda bir ma'nolilikni ifodalaydi. Chunki leksema garchi u ko'p ma'noli bo'lsa ham muayyan bir kontekstda faqat bir sememasi bilan ishtirok eta oladi. Ko'p ma'noli terminlar ham nutqda bir ma'nosi bilan qatnashadi.

O'TILdan ko'p ma'noli tarixga oid terminlarini ajratishda ularning lug'at maqolasidagi sememalari miqdoriga tayanildi. Tilshunos M.Mirtojiyev ta'kidlaganidek: "Polisemantik so'zlarning strukturasi faqat leksik ma'nolar bilan o'lchanadi. Boshqa ma'nolar esa polisemantik so'zlarni vujudga keltira olmaydi. Shuningdek, ma'lum polisemantik so'zning ma'no strukturasi tarkib toptiruvchi leksik ma'nolar miqdori bilan uning lug'at maqolasida qayd qilingan ma'nolar miqdori teng kelishi ham shart emas. Chunki lug'at maqolasida so'zning leksik ma'nolari qatoriga boshqa ma'nolarni ham sanab, qo'shib ketishni lug'atchilik inkor etamaydi". [Mirtojiyev M., 1975, 14].

Ko'p ma'noli terminlarni ular sememalarining o'zaro munosabatidan kelib chiqib quyidagicha tasnif qildik:

- 1) bir soha doirasidagi ko'p ma'noli tarixga oid terminlar;
- 2) turli soha doirasidagi ko'p ma'noli tarixga oid terminlar;

Bir soha doirasidagi ko'p ma'noli tarixga oid terminlar. Bunday terminlarning barcha ma'nosi tarix sohasiga oid bo'ladi. Masalan, *forum* termini ko'p ma'noli bo'lib O'Tilda quyidagicha izohlangan:

FORUM [lot. forum] 1 **tar.** Qadimgi Rimda xalq yig'inlari, yarmarkalar, sud majlisi va boshqa. tadbirlar o'tkaziladigan maydon.

2 Keng vakolatli yig'ilish, anjuman. *Butun dunyo yoshlar forumi. Jurnalistlar forumi. Ikki qit'a yozuvchilari forumi do'stlik va birdamlik bayramiga aylanib ketdi.* Gazetadan. [O'TIL., 2-jild; 125].

Ko'rinadiki, *forum* terminining har ikkala ma'nosi ham tarixga oid. Ammo ular tatbiq etilishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

ARBOB [janoblar; xo'jayinlar; amaldorlar] 1 Fan, madaniyat, san'at sohasida yoki davlat ishida o'z faoliyati bilan tanilgan, shu sohada o'zini ko'rsatgan shaxs. Jamoat arbobi. Madaniyat arbobi. San'at arbobi. Siyosiy arbob.

2 Davlat, hukumat apparatida ishlovchi yuqori martabali shaxs, rahbar. O'rta Osiyo ayollaridan davlat arboblari, mehnat qahramonlari, olimlar yetishgan. Oybek, Nur qidirib.

3 tar. Buxoro xonligida: mahalla boshlig'i, ellikboshi yoki qishloq oqsoqoli. Haydar uchinchi g'alvirni to'ldirayotganda, qishloq tomonidan har biri bir xurjun ko'tarib imom, sartarosh va arbob shoshib-pishib yetib keldilar. S. Ayniy, Qullar. [O'TIL., 2-jild; 89].

Mazkur termin bir soha doirasida ko'p ma'nolilikni hosil qilib, ular o'rtasida bog'li aloqa mavjud.

Turli soha doirasidagi ko'p ma'noli tarixga oid terminlar. Bunday tarixga oid terminlari turli soha doirasida qo'llansa-da, har doim termin maqomida bo'ladi. Bunga misol sifatida O'TILda berilgan *beshlik* termini izohini ko'rib chiqamiz.

BESHLIK 1 *ad.* Besh misradan iborat bo'lgan qit'a; muxammas.

2 *tar.* Besh kishidan iborat bo'lgan guruh. *Beshlik komissiya.*

3 Beshta xoli bo'lgan karta. *G'ishtinning beshligi*. [O'TIL., 1-jild; 246].

Berilgan *beshlik* terminining 1-ma'nosi adabiyot sohasiga oid bo'lsa, 2-ma'nosi tarix sohasiga, 3-ma'nosi leksik pometa bilan berilmagan bo'lsa ham tarix sohasiga oidlikni ifodalaydi.

O'TILda keltirilgan ayrim ko'p ma'noli tarixga oid terminlarining ma'nolaridan ba'zilar eskirgan. Natijada hozirgi o'zbek tilimizda bu terminlar bir ma'noda qo'llanilmoqda. Masalan: zakot terminining O'TILdagi ma'nolari quyidagilar:

“**ZAKOT** [a. poklik; poklanish; sadaqa] 1 din. Shariatga muvofiq, puldor, badavlat musulmonning o'ziga qarashli mol-mulki va daromadining qirqdan bir ulushi miqdorida (ro'za vaqtida) beva-bechoralarga, kambag'al-qashshoqlarga beradigan xayr-sadaqasi. Mana, Farg'onaning eng aziz, eng badavlat, eng xalqparvar odami – Sodiqjon boyvachcha yaqinda butun Qo'qon xalqiga zakot berdilar. K. Yashin, Hamza.

2 tar. O'rta Osiyo xonliklarida: chorva va mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olingan soliq. Soliqlarning uchinchi turi – zakot – mol-mulkdan olinadigan davlat solig'i edi. F. Ozodayev, Toshkent tarixidan ocherklar. ..dehqonlar.. kosiblar hamisha amirning xiroj, zakot singari soliqlarining jabrini tortar.. xonavayron bo'lardi. Gazetadan.” [O'TIL.,2-jild; 125].

Hozirgi o'zbek tilida zakot termini faqat lug'atda keltirilgan birinchi ma'noda qo'llanilmoqda, ikkinchi ma'no esa tarixiylashgan. Har ikki ma'no o'rtasidagi bog'liqlikni “mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida berilish” semasi ta'minlagan. Birinchi ma'noda bu ulush muhtojlarga xayr-ehson sifatida berilsa, ikkinchi ma'noda davlat foydasiga soliq sifatida olinadi.

Demak, tarixga oid terminlarida ko'p ma'nolilikning kelib chiqishi, asosan, terminlarning turli sohalarda o'ziga xos ma'nolarda qo'llanilishi bilan bog'liq. Termin bir sohadan ikkinchi sohaga ko'chayotganda o'zining mohiyatiga aloqador semalarni saqlash barobarida o'tayotgan sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib unga qo'shimcha semalar yuklanadi. Natijada u polisemantik terminga aylanadi.

Ayrim adabiyotlardagi terminlarga qo'yilgan bir ma'nolilik talabini esa terminning muayyan bir kontekstda faqat bitta ma'noni ifodalashi, aniq bir tushunchani anglatishi sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yuqoridagi tavsiflarda ko'rganimiz singari ko'plab tarixga oid terminlarning polisemantikligini, sememalari orasidagi ma'noviy bog'liqlikning darajasini mukammal tekshirishga zarurat bor. Ma'noviy bog'liqlikning darajasiga ko'ra ularning polisemantik yoki omonimligi tahlil qilinadi, shu bilan birga yaqin ma'nolarni bir sememaga umumlashtirish vazifasi amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hakimova M. Semasiologiya. Toshkent: 2016.
2. Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.Московский лицей, 1993.
3. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.